Vol. 1, Issue 1

UO‘K 372.881.1

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA DIFFERENSIAL MASHQLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Nuriddinova Nafisaxon Tolib qizi[1]

[1]O‘zJDJTU, amaliy fanlar kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada kommunikativ kompetensiya tushunchasining shakllanish tarixi va uning tarkibiy modellari tahlil qilingan. Til o‘rganishda differensial mashqlardan foydalanishning nazariy asoslari ochib berilgan. D. Hymes, M. Canale va M. Swain, L. Bachman, M. Celce-Murcia va hammualliflari hamda CEFR modellari qiyosiy o‘rganilgan. Differensiatsiya asoslari va mashqlar tasnifi asosida differensial mashqlar tizimi taklif etilgan. Mavzuga oid ilmiy-metodik ishlar tahlili natijasida ushbu yo‘nalishdagi ochiq masalalar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, differensial mashqlar, differensiatsiyalangan ta’lim, lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, strategik kompetensiya, CEFR, mashqlar tizimi.

Аннотация. В статье проанализированы структурные модели коммуникативной компетенции и теоретические основы использования дифференцированных упражнений, предложена двухмерная система дифференцированных упражнений и выявлены открытые вопросы в научно-методических работах.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, дифференцированные упражнения, дифференцированное обучение, лингвистическая компетенция, социолингвистическая компетенция, стратегическая компетенция, CEFR, система упражнений.

Abstract. The article analyses structural models of communicative competence and the theoretical foundations of differentiated exercises, proposes a two-dimensional system of differentiated exercises and identifies open questions in the methodological literature.

Keywords: communicative competence, differentiated exercises, differentiated instruction, linguistic competence, sociolinguistic competence, strategic competence, CEFR, exercise system.

1. Kirish

Til ta’limining zamonaviy maqsadi o‘quvchining real muloqot vaziyatlarida tildan to‘g‘ri, o‘rinli va samarali foydalana olishini, ya’ni kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. Chet tillarni o‘rganish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qarorda ham muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan [1], CEFR daraja tizimi esa kommunikativ natijani o‘lchashning xalqaro me’yoriga aylandi [2].

Biroq bir guruhdagi o‘quvchilar tayyorgarligi, qiziqishi va o‘quv uslubi bo‘yicha farq qiladi, bir xil mashqlar esa kimgadir oson, kimgadir haddan tashqari qiyin bo‘ladi. L. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga ko‘ra, o‘qitish o‘quvchi mustaqil va faqat yordam bilan bajara oladigan vazifalar oralig‘iga yo‘naltirilgandagina samarali bo‘ladi [3]. Shu sababli differensial mashqlardan foydalanish dolzarb metodik masaladir.

Tadqiqot maqsadi – kommunikativ kompetensiyani differensial mashqlar asosida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash. Vazifalar: 1) kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning til o‘rganishdagi o‘rnini tahlil qilish; 2) differensial mashqlar va ularning turlarini tizimlashtirish; 3) mavzuga oid ilmiy-metodik ishlarni tahlil qilish.

2. Metodlar

Metodologik asos – kompetensiyaviy, kommunikativ-faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar. Adabiyotlarni tahlil qilish, modellarni qiyosiy-tarixiy tahlil qilish, mashqlar tasniflarini tizimlashtirish va modellashtirish metodlari qo‘llanildi.

Tahlilga asosiy nazariy ishlar [4; 5; 6; 7; 8], CEFR [2], mashqlar va o‘qitish texnologiyalariga oid asarlar [9; 10; 11; 12] hamda o‘zbek metodistlarining ishlari [13] kiritildi.

3. Natijalar


1. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning til o‘rganishdagi o‘rni. “Kommunikativ kompetensiya” atamasini 1972-yilda D. Hymes N. Chomskiyning “lingvistik kompetensiya” tushunchasiga muqobil sifatida ilmiy muomalaga kiritgan. Hymesning fikricha, til egasi grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishni bilishi bilan birga, uni qachon, kimga, qayerda va qanday aytish kerakligini ham bilishi lozim [4]. Keyingi o‘n yilliklarda tushuncha bir necha modellarda aniqlashtirildi (1-jadval).

1-jadval

Kommunikativ kompetensiya modellarining tarkibiy komponentlari


Model	Komponentlar	Asosiy yangiligi
M. Canale, M. Swain, 1980 [5]	Grammatik, sotsiolingvistik, strategik	Kompetensiyani ta’lim va testlash uchun operatsionallashtirgan
M. Canale, 1983 [6]	Grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik	Diskursiv kompetensiyani alohida ajratgan
L. Bachman, 1990 [7]	Til bilimi (tashkiliy va pragmatik) va strategik kompetensiya	Strategik kompetensiyani bilim va vaziyat o‘rtasidagi bog‘lovchi sifatida talqin qilgan
M. Celce-Murcia va b., 1995 [8]	Lingvistik, sotsiomadaniy, diskursiv, harakat (aksional), strategik	Pedagogik maqsadda mazmun spetsifikatsiyasini bergan
CEFR, 2001/2020 [2]	Lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik	Kompetensiyani A1–C2 darajalari va “qila oladi” deskriptorlari bilan bog‘lagan

Modellar tahlili kommunikativ kompetensiyaning beshta umumiy komponentini ajratish imkonini berdi: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik va pragmatik (1-rasm). Kommunikativ kompetensiya ta’limning ham maqsadi, ham natijasini baholash mezoni bo‘lib, CEFR deskriptorlari uni o‘lchanadigan shaklda ifodalaydi [2].



1-rasm. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi

2. Differensial mashqlar va ularning turlari. Differensial mashq deganda bir xil kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan, ammo o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishi yoki o‘quv uslubiga ko‘ra murakkabligi, tayanch materiali va bajarish shakli bilan farqlanadigan mashq tushuniladi. C. Tomlinson differensiatsiyaning uchta obyektini ajratadi: mazmun (nimani o‘rganish), jarayon (qanday o‘rganish) va mahsulot (natijani qanday ko‘rsatish). Differensiatsiya asosi sifatida esa o‘quvchilarning tayyorgarligi, qiziqishi va o‘quv profili olinadi [12].



2-rasm. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan differensial mashqlar tizimi

W. Littlewood kommunikativgacha bo‘lgan (strukturaviy, kvazikommunikativ) va kommunikativ (funksional-kommunikativ, ijtimoiy-interaktiv) mashqlarni ajratadi [9]. Ikki yondashuv birlashtirilib, har bir mashq turi A (yordam bilan), B (qisman mustaqil) va C (mustaqil) darajalarida beriladigan tizim taklif etildi (2-rasm, 2-jadval).

2-jadval

Differensial mashqlar turlari va ularning darajalar bo‘yicha namunalari

Mashq turi	A daraja (yordam bilan)	B daraja (qisman mustaqil)	C daraja (mustaqil)	Kompetensiya
Strukturaviy	Namuna bo‘yicha gaplarni o‘zgartirish	Tayanch so‘zlar bilan gap tuzish	Berilgan shakl bilan erkin gap tuzish	Lingvistik
Kvazikommunikativ	Tayyor savollarga javob berish	Rasm yoki jadval asosida savol-javob	Vaziyatga mos savollarni o‘zi tuzish	Lingvistik, diskursiv
Funksional-kommunikativ	To‘liq jadval bilan axborot almashish	Qisman bo‘sh jadval bilan axborot almashish	Jadvalsiz muammoli vaziyatni hal qilish	Pragmatik, strategik
Ijtimoiy-interaktiv	Rol kartochkasi va tayyor iboralar bilan rolli o‘yin	Faqat vaziyat tavsifi bilan rolli o‘yin	Muhokama, munozara, loyiha taqdimoti	Sotsiolingvistik, strategik

3. Ilmiy-metodik ishlar tahlili. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va differensiatsiyaga oid asosiy ilmiy-metodik yondashuvlar 3-jadvalda umumlashtirilgan.

3-jadval

Kommunikativ kompetensiya va differensiatsiyaga oid asosiy ilmiy-metodik yondashuvlar

Muallif / yondashuv	Asosiy g‘oya	Differensial mashqlar uchun ahamiyati
Ye. Passov – kommunikativ metod [10]	O‘qitish jarayoni muloqot jarayoniga o‘xshash bo‘lishi; nutqiy faollik va individuallashtirish	O‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish talabi
W. Littlewood – kommunikativ til o‘qitish [9]	Kommunikativgacha bo‘lgan mashqlardan kommunikativ mashqlarga bosqichma-bosqich o‘tish	Mashqlar ketma-ketligi uchun tasnif asosi
R. Ellis – vazifaga asoslangan ta’lim [11]	Ma’noga yo‘naltirilgan, natijasi aniq vazifalar orqali o‘rganish	Vazifa murakkabligini boshqarish orqali differensiatsiya
C. Tomlinson – differensiatsiyalangan ta’lim [12]	Mazmun, jarayon va mahsulotni tayyorgarlik, qiziqish va o‘quv profiliga moslash	Differensiatsiya obyektlari va asoslari
J. Jalolov – chet til o‘qitish metodikasi [13]	Mashqlar tizimi va nutq faoliyati turlarini o‘rgatish metodikasi	Milliy ta’lim sharoitiga moslashtirilgan mashqlar tizimi

4. Muhokama

Natijalar differensial mashqlar uchun uchta nazariy asosni ko‘rsatadi. Birinchidan, kommunikativ kompetensiya ko‘p komponentli bo‘lib, uning komponentlari o‘quvchilarda turli darajada shakllangan bo‘lishi mumkin [6; 8], shuning uchun differensiatsiya alohida komponentlar bo‘yicha ham o‘tkazilishi kerak. Ikkinchidan, Littlewood tasnifi strukturaviy mashqlardan ijtimoiy-interaktiv mashqlarga “gorizontal” o‘tishni beradi [9], A–C darajalari esa uni o‘quvchining yaqin rivojlanish zonasiga moslashtiruvchi “vertikal” o‘lchovni qo‘shadi [3]. Shu bilan birga, kommunikativ metodika [9; 10] va umumdidaktik differensiatsiya nazariyasi [12] hozirgacha asosan alohida rivojlangan.

Uchinchidan, CEFR “qila oladi” deskriptorlari differensial mashqlar natijasini o‘lchash uchun tayyor mezon beradi [2]. Shu bilan birga, differensiatsiya uchun diagnostika vositalari, bir vaqtda turli darajadagi mashqlarni tashkil etish texnologiyasi va mashqlar samaradorligini empirik baholash masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ular keyingi boblarda, xususan tajriba-sinov ishlarida hal etilishi lozim.

5. Xulosa

Kommunikativ kompetensiya lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik va pragmatik komponentlarni qamrab olib, til ta’limining ham maqsadi, ham natijalarini baholash mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Uni rivojlantirishga yo‘naltirilgan differensial mashqlar tizimi ikki o‘lchov asosida tuzildi: birinchi o‘lchov Littlewood tasnifiga muvofiq mashq turlarining ketma-ketligini, ikkinchisi esa har bir mashq turining A, B va C murakkablik darajalarini belgilaydi. Bunda differensiatsiya Tomlinson modeli asosida ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni va o‘quvchi faoliyati mahsuloti doirasida amalga oshiriladi. Ilmiy-metodik ishlar tahlili kommunikativ yondashuv va differensiatsiya nazariyasini o‘zaro integratsiyalash hamda shu asosda

ishlab chiqilgan differensial mashqlar tizimining samaradorligini empirik tekshirish zarurligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
4. Hymes D.H. On communicative competence // Pride J.B., Holmes J. (eds.) Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
5. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.
6. Canale M. From communicative competence to communicative language pedagogy // Richards J.C., Schmidt R.W. (eds.) Language and Communication. – London: Longman, 1983. – P. 2–27.
7. Bachman L.F. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 1990.
8. Celce-Murcia M., Dörnyei Z., Thurrell S. Communicative competence: a pedagogically motivated model with content specifications // Issues in Applied Linguistics. – 1995. – Vol. 6, No. 2. – P. 5–35.
9. Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981.

10. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1991.

11. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003.

12. Tomlinson C.A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. – 3rd ed. – Alexandria, VA: ASCD, 2017.

13. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.